

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI

Gullola To'ymurodova Normurod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich
talabasi

e-mail: gulituymurodova0722@gmail.com

***Annotatsiya:** Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid metodika va zamonaviy o'quv metodik qo'llanmalar haqida tushunchalar berib o'tilgan. Pedagogik mahorat, ta'lim sifati va IT innovatsiyalar to'g'risida fikr va mulohazalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** jamiyat, metod, intellekt, "Aqliy hujum", ta'lim, innovatsiya, mahorat, pedagogik mahorat, ratsionalizatsiya.*

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida, fikrlash qobiliyatlari keng doiradagi ijodkor mutaxassislariga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj oshib bormoqda. Mutaxassisning ijodiy faoliyati va tafakkuriga, loyihalashtirish, baholash, ratsionalizatsiya qilish kabi muammolarning yechimi ko'p jihatdan bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va metodlariga bog'liq. Intellektual salohiyatni shakllantirish, kasbiy muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila oladigan, shaxsiy va umumiy ta'lim kasbiy faoliyatidan xabardor bo'lishga qodir raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash ta'lim muassasasi o'qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalaridir. O'quvchi tomonidan qayta ishlanadigan ma'lumotlarning hajmi ortib borishi, xotiraga yuk bo'ladi, demak, bir vaqtning o'zida juda katta hajmdagi ma'lumotni o'zlashtirish faqat innovatsion ta'lim metodlari yordamida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan mashg'ulotlar samaradorligiga erishish uchun o'qitishning innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalarini joriy etishni taqozo qiladi.

Innovatsiya-bu yangi mazmun va yangi ta'lim metodlarini amaliyotga qo'llashdir. Ta'lim metodlari bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanish va taraqqiyotga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan o'zaro bog'liq faoliyat yo'llari hisoblanadi. Innovatsion ta'lim metodlari o'quvchilarni amaliyotga va fikrlashga undaydi, mutaxassis tayyorlash sifatini oshirish, talabalarning bilish faolligini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, o'quv

jarayonini yuqori darajada tashkil etish maqsadida o'qitishning eng samarali innovatsion metodlaridan foydalaniladi.

“Texnologiya” tushunchasi keng ma’nodan insonning barcha antropogen faoliyati natijasida maxsulot yaratilishi jarayonlarini kamrab oladi. Texnika va texnologiya, sanoat va transport, mashinasozlik va aviatsiya, kimyo va metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik, umuman, yaratuvchanlik va ijodkorlik mexnati va metod, vosita xamda jarayonlar majmuasini ifodalash uchun shu kungacha cheklanmagan miqyosda foydalanib kelinayotgan ushbu atama mazmun va mohiyati keng ko‘lamga ega bo‘lib qoldi. Pedagogik jarayonlar uchun tatbiq kilinuvchi texnologiyaning an’anaviy va noan’anaviy, tarixiy, klassik, yangi va zamonaviy turlari farq qilinmoqda. Asosiy maqsad - shaxs ta’lim-tarbiyasi xamda uning aqlan va jismonan rivojlanishi bilan bog‘liq kasbiy faoliyat ekanligini nazarda tutsak, qanday nomlanishidan qat’i nazar, pedagogik texnologiya komil inson tushunchasiga mazmunan singib ketishi lozim. Pedagogik texnologiyaning umumpedagogik, xususiy va kichik darajalari farq qilinadi. Bundan tashqari, sezgi a’zolari orqali bilim olishni ifodalaydigan empirik, moddiy va ma’naviy olam Haqidagi bilimlarni kengaytiruvchi kognitiv, ijodiy faollik va o‘quv-izlanish mehnatiga asoslangan evristik, tadqiqot va yangilik yaratish faoliyati bilan bog‘liq kreativ, axborot va ma’lumotlarni kayta ishlash va o‘zgartirish evaziga ta’lim-tarbiya beruvchi inversion, o‘zlashtirilgan bilimlarni omixtalab tugal tafakkurga olib keluvchi integrativ, yosh va individual xususiyatlarni xisobga olib o‘qitishga tayanuvchi adaptiv, ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchi shaxsi bilan o‘qituvchi (tarbiyachi) munosabatidagi tenglik va adolatlikka bo‘ysunuvchi inklyuziv kabi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlari shakllangan. Ularning qamrovi yuqorida tilga olingan uch xil darajada bo‘lishi mumkin. Umumpedagogik texnologiya dunyo ta’lim tizimining barcha ilg‘or va samarali elementlarini o‘zida jo etadi va keng ko‘lamda amalga oshiriladi. Bizning amaldagi uzluksiz va yagona ta’lim tizimimizda umumpedagogik texnologiya yetakchi o‘rinni egallaydi. Ta’lim turlari va yo‘nalishlari, ixtisoslik va mutaxassislik tasnifi xamda ta’lim muassasasining o‘ziga xosligi asosida xususiy texnologiya joriy etiladi. O‘qitishning asosiy tashkiliy shakli bo‘lgan dars va uning bevosita davomi bo‘lgan darsdan tapgkari ishlarda kichik texnologiyalar qo‘llaniladi xamda ular lokal (maxalliy) pedagogik samaraga olibborishi lozim. Pedagogik texnologiya murakkab jarayon-insonning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishda asosiy vosita bo‘lganligi tufayli ham uning asoslari xam shaxs murakkabligi kabi xilma-xil. Ular orasida tarixiy, nazariy, metodologik, ijtimoiy, falsafiy, pedagogik, didaktik, fiziologik, gigienik, iktisodiy, mafkuraviy, xuquqiy-me’yoriy, amaliy va boshqalar farq qilinadi. Umuman, pedagogik texnologiyaning vujudga kelishi ilmiy jarayon sifatida qaraladi. Pedagogik texnologiya o‘quv predmeti

va fan sifatida o'zining xayotdagi munosib urnini egallab bormokda. "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Zamonaviy pedagogik va interfaol texnologiya", "Axborot va innovatsion texnologiyalar", "Ta'lim texnologiyasi", "Texnika", "Mahorat", "Axborot texnologiyasi", "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "Ta'lim metodlari", "Tarbiya metodlari", "Pedagogik mahorat" kabi atamalar, tushunchalar, maxsus va tanlov kurslari, o'quv predmetlari shakllanib va ularning mazmun-moxiyati o'zgarib, turmush va amaliy faoliyatga shiddat bilan kirib kelmoqda. Pedagogik texnologiyaning o'z tarkibi va mazmuni bo'yicha takomillashuvi, uning kasbiy faoliyat sifatida samaradorligining ortishi uzluksiz davom etadi. Bunday dinamik jarayon ta'lim tizimida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan butuntarзда kechadi va ularning turlari, shakllari xamda turfa variantlari orasidagi uzviylik va uzluksizlik beto'xtov davom etadi. Pedagogik texnologiyaning umumiy tavsifi va tarkibiy mazmuni uning ijtimoiy hodisa ekanligida namoyon bo'ladi va ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq maqsad va vazifalar, motiv va extiyojlar, talab va manfaatlar, qiziqish va xoxishlarni amalga oshirishda ro'y-rost ko'rinadi. Asosiy tamoyil-pedagogik texnologiyaning O'zbekistan Respublikasida ta'limning uchta turi - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim uchun yaratilgan va amaliyotga joriy etilayotgan Davlat ta'lim standartlari xamda ta'limning boshqa turlari uchun tegishli davlat dasturlari va talablarini bajarishga yo'g'rilganligi. Pirovard natijada, pedagogik texnologiya pedagogikaning asosiy ("oltin") koidasini bajarishga, ya'ni ta'lim-tarbiya birligini ta'minlashga xizmat kilishi lozim. Bunda izchillik, maqsadlilik, umumiylik kabi tamoyillar bilan bir katorda pedagogik texnologiyaning metodologik, ijtimoiy, falsafiy, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, ginetik, mafkuraviy, xuquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy va amaliy asoslari ham barobariga qatnashadi. O'qituvchi va o'quvchi munosabatiga daxldor tamoyillarning amal qilishi esa o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashning qudratli omili. Pedagogik texnologiyaning barcha tamoyillari o'zaro aloqadorlikda va bir-birini takozo etgan holda amal qiladi. Pedagogik texnologiyaning o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi - talabalarga ta'sir kursatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni desa bo'ladi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi o'zaro bog'liq bo'lishi bilan birga farq kiluvchi tomonlari ham mavjud. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini kamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi esa ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Axborot xilma-xilligi sharoitida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini tekshirish har bir bitiruvchini mehnat bozorida talab qilinadigan vakolatli mutaxassis, haqiqiy fuqaro-vatanparvar, konstitutsiyaviy burchlarini vijdonan bajaradigan, jamoat hayotida va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan, ta'lim muassasasida amalga oshirilgan tarbiyaviy vatanparvarlik jarayonining mantig'ini aks ettiradi. O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasida faollik, aksiologik, tarixiy va madaniy faoliyatli yondashuvga tayanish;

ta'lim muassasasi talablariga javob beradigan vatanparvarlik dunyoqarashini tashkil etishning eng muhim omili bilan vatanparvarlik tarbiyasi oldida muhim tushunchalarni ishlab chiqish, axborotxilma-xilligi sharoitida ularni boshqarish;

- axborotlar xilma-xilligi sharoitida o'quv jarayoniga o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash modelini joriy etish;

- ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida talabalarning vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishni baholash ko'rsatkichlari bo'yicha tizimli diagnostikani yaratish.

Ma'lumotlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim muassasasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik texnologiyasi ishlab chiqildi va eksperimental ravishda sinovdan o'tkazildi. Vatanparvarlik tarbiyasi texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

kontseptual asoslarning mavjudligi (shaxsga faoliyat va aloqa sub'ektining mavqeini ta'minlaydigan, axborotlar xilma-xilligi sharoitida ta'lim jarayoni, uning qonunlari va tamoyillari to'g'risidagi axborot xilma-xilligi shartlarini o'z ichiga oladi);

diagnostik maqsadlarning ta'rifi (o'quvchining harakatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi aniq maqsadlarni belgilashni o'z ichiga oladi (biladi, tushunadi, qo'llaydi);

- ta'limiy vaziyatlarni dolzarblashtirish (quyidagi turdagi ta'lim vaziyatlarini aniqlashni nazarda tutadi: tayyorgarlik, funktsional, nazorat, yakuniy);

quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotning imkoniyatlari: ta'lim darajasini oldindan baholash; moddiy protseduralar to'plami; natijalarni yakuniy baholash va yangi maqsadlarni belgilash;

o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqish va ob'ektiv nazorat qilish va shu asosda o'qitish yoki ta'limning har qanday bosqichini o'z vaqtida tuzatish. Ushbu xususiyat diagnostika maqsadi bilan chambarchas bog'liq, chunki u yanada ob'ektiv baholash va nazorat qilish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa qayta aloqa sifatini yaxshilaydi.

O'zbekiston yoshlarini salbiy axborotlar ta'siridan himoya qilish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan:

1. faol individual tarbiyaviy ishlar;

2. shaxsning axborot va psixologik xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha ishlar;
3. salbiy ma'lumotlardan himoyalanihga hissa qo'shadigan axborot va ta'lim ta'sirini amalga oshirish;

Salbiy ma'lumotlardan himoya qilish bo'yicha pedagogik ko'rsatmalar yaratish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni
2. Murojaatnoma. SH. Mirziyoyev. Toshkent 2021
3. "Professional ta'lim sohasini yanada takomillashtirish haqida qo'shimcha chora-tadbirlar" PF 5349-sonli Farmoni
4. "Ta'lim tizimida innovatsiya" K. Abdullayev